PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

INKLYUZIV TA’LIM YO‘LGA QO’YILGAN MAKTABLAR FAOLIYATINI TAHLIL QILISH KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Abdullayeva Maftuna
Pedagogika fakulteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20056762

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan maktablar faoliyati tahlil qilinadi. Unda inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari hamda amaliyotdagi yutuq va muammolar yoritilgan. Shuningdek, alohida ehtiyojli o‘quvchilarni umumiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning roli tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun metodik, moddiy-texnik va kadrlar tayyorgarligi muhim omil ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, alohida ehtiyojli bolalar, integratsiya, pedagogik yondashuv, ta’lim sifati, ijtimoiy moslashuv, maxsus ta’lim

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность школ, в которых внедрено инклюзивное образование. Рассматриваются сущность, основные принципы, достижения и проблемы инклюзивного обучения. Также изучается роль педагогов, родителей и общества в интеграции детей с особыми образовательными потребностями в общий образовательный процесс. Результаты показывают, что важными факторами эффективной организации инклюзивного образования являются методическое обеспечение, материально-техническая база и подготовка кадров.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, интеграция, педагогический подход, качество образования, социальная адаптация, специальное образование

Annotation: This article analyzes the activities of schools where inclusive education has been implemented. It highlights the essence, principles, and practical achievements and challenges of inclusive education. The role of teachers, parents, and society in integrating students with special needs into the general education process is also examined. The results show that methodological support, material and technical resources, and teacher training are key factors in ensuring effective inclusive education.

Keywords: inclusive education, special needs children, integration, pedagogical approach, education quality, social adaptation, special education

Kirish

Hozirgi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning, jumladan, jismoniy yoki psixologik rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning ham teng huquqli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi. Bu yondashuv jamiyatda tenglik va bag‘rikenglikni shakllantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlil qilinganda, masalan, Rossiya Federatsiyasida o‘qituvchini imkoniyati cheklangan bolalar ta’limiga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari “Umumta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari kasbiy darajasini oshirishning kompleks dasturi”da (2014 y.) aks ettirilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar ushbu kasbiy standart pedagogik ata’lim sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimi

malaka talablarini ishlab chiqishda asos sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida inklyuziv ta'limga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimi inklyuziv yondashuvni kengaytirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarga ega. Bu yerda har bir o‘quvchiga individual yondashuv qo‘llaniladi va muammolarni hal qilishda pedagogik yordam ko‘rsatiladi. Kanadada ham inklyuziv ta'limga alohida e'tibor berilgan. Bu mamlakatda ta'lim tizimi nogironligi bo‘lgan talabalar uchun maxsus resurslar va o‘qituvchilarni taqdim etadi, shuningdek, o‘quvchilarning har xil ehtiyojlari asosida individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish amaliyoti mavjud.

Asosiy qism

Inklyuziv ta’lim yo‘lga qo‘yilgan maktablar faoliyati bir nechta muhim jihatlar orqali tahlil qilinadi:

Birinchidan, o‘quv jarayonining moslashuvchanligi muhimdir. Bunday maktablarda darslar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi. Bu esa differensial va individual yondashuvni talab qiladi.

Ikkinchidan, pedagoglarning malakasi katta rol o‘ynaydi. Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishi lozim. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab maktablarda bu borada hali yetarli tajriba mavjud emas.

Uchinchidan, moddiy-texnik baza ham muhim omillardan biridir. Maxsus jihozlar, moslashtirilgan sinf xonalari va o‘quv vositalari inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi.Shuningdek, ota-onalar va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi ham muhim hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim faqat maktab doirasida emas, balki keng ijtimoiy hamkorlik asosida rivojlanadi. Inklyuziv ta’lim tizimining jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘ni va roli quyidagi vazifalarning hal etilishi talab etiladi: ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik xuquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro‘yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir. Yuqoridagi vazifalarni to‘laqonli amalga oshirishda eng birinchi galda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim: Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo‘lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday holatda va qanday imkoniyatga ega bulishidan qat’iy nazar har doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki alohida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tugri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan “anomal bolalar”, “nogiron bolalar”, “ko‘r bolalar”, “kar bolalar”, “aqli zaif bolalar”, “harakat tayanch a’zolari falajlangan bolalar” va x. k. tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar mkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta’sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar me’yorda rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bo‘lish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun ham taxkirlashlarga yul kuymaslik talab etiladi. Inklyuziv ta’limning prinsiplari: 1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas. 2. Har bir inson o‘ylash va his qilish qobiliyatiga ega. 3. Har bir kishi eshitish va

muloqot qilish qobiliyatiga ega. 4. Har bir kishi bir-biriga muhtoj. 5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta’lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi. 6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muhtoj. 7. Hamma ta’lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi. Inklyuziv ta’lim tizimi qo‘yidagi ta’lim muassasalarni o‘z ichiga oladi; maktabgacha umuta’lim, umumo‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-xunar va oliy ta’lim. Bu ta’lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta’lim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o‘rtasidagi to‘siqlikni bartaraf etib ochiq ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Umumta’lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integratsiyalashgan ta’lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Kompetansiyani rivojlantirishga tayangan kuchli tomonlariga asoslangan yondashuvni belgilash. O‘quvchilarning kuchli tomonlari va muammolari ustida diqqatni to‘plash uchun. TIR (ta’limning individual rejasi) dan foydalanish. Tadbirlarni tashkil etish uchun tizimlarga aralashuvda javoblardan foydalanish. Differensial ta’limga o‘qitish uchun universal dizayndan foydalanish. Xulq-atvorni boshqarishni qo‘llab-quvvatlash uchun va hatti-harakat sababli ijobiy tarzda aralashuvdan foydalanish. Progressni (yuksalishni) monitoring qilish va ta’limni axborotlashtirish uchun turli baholash strategiyalaridan foydalanish. Ta’lim jarayonini engillatish uchun turli yordamchi va tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanish. Metakognitiv strategiya kabi ta’limning samarali yondashuvlaridan foydalanish uchun o‘quvchilarga ta’lim berish. Madaniy dolzarb va mos keluvchi tadbir va jarayonlarni ta’minlash. Bolalarning ota-onalari bilan yaqin hamkorlikda hamkorlik olib borish uchun mutaxassislarni yuborish. Tamoyillar: Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi: 1) Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi. 2) Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili. 3) Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili. 4) Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili. 5) Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili. 6) Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili. 7) Malakaviylik tamoyili. Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida Ilmiy-nazariyvametodikjurnal journal bir qancha jahon miqiyosida dekloratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko‘plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko‘plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta’lim masalasi unga kiritilmaydi. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili. O‘tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta’limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo‘lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta’minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo‘lishi ta’minlanishi lozim. Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili. “Bog‘lanish”-bu so‘zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo‘lishi kabilar yotadi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili. Bu tamoilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi: A) Inaklyuziv ta’lim xizmatlari umumiy ta’lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo‘lishi kerak. B) Inklyuziv ta’lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta’lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim. Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili. Nogiron bolalrga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalrga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxus ehtiyojli bolalar uchun

ta’lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta’limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko‘nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o‘quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo‘lishi kerak. Bolaning maxsus ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo‘lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o‘zgaruvchan bo‘lishi talab etiladi. Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o‘qitilayotgan sinflarda yuhori malakali o‘qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Ilmiy-nazariyvametodikjurnal inklyuziv sinf o‘qituvchisi defektlogiya sohasi bo‘yicha ham malaka oshirgan bo‘lishi kerak. Inklyuziv ta’lim joriy qilingan maktablarda ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari. Maxsus ta’lim tamoyillari: Korreksion yo‘naltirilganligi; nuqsonini aniqlash, ta’lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologo-pedagogik) yondoshish; nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy-psixologik jixatdan korreksiyalash; umumiy o‘rta ma’lumot berish, kasbga yunaltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish; differensial-tabaqalashtirish va oloxida yondoshish; ta’limning uzliksizligini ta’minlash. Inklyuziya barcha o‘quvchilarni o‘zaro hamkorligini qo‘llovchi o‘quvchilar hamjamiyatini ichida individual farqlarni o‘rganish va hurmat qilishga yo‘naltirilgan. Bunga erishish uchun pedagoglar barcha o‘quvchilarga umumiy o‘quv rejasiga asoslangan individuallashtirilgan kutilayotgan natijalarni aniqlaydilar (Metlok, Fielder va Volsh,2001) hamda moslashtirilgan ta’lim texnikasini taklif qilib, bu orqali o‘quvchilarga muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun invididual moslashishga yordam beradilar. Har bir muhokama bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga salishtirib, qayd etib, takidlab borish muhimdir. O‘quvchilar bilan turli xildagi va psixologik testlar o‘tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni mudda. O‘qituvchilar ishlarini va ularning yutuklarini barcha soxalarida maktab va maktabdan tashkari ishlarda namoyish kilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini ham qo‘llash juda samara beradi. Kitoblar, plakatlar va dasturlarni qo‘llayotib, shunga ishonch hosil qilish kerakki, ular inklyuziv ta’limga mos kelishi kerak. Maktablar ochiq bo‘lishi, o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglar muloqat qila bilishi kerak.

Adabiyotlar Ro‘yxati

1. R. Sh. Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslubiy qo‘llanma. T.:2011 yil.
2. L.R.Muminova. Inklyuziv ta’lim. T.:- 2014 yil.
3. Ture Yonsson. . Inklyuziv ta’lim. T.: -2003.
4. R.Sh.Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslubiy qo‘llanma. T.:-2011 yil. MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]